

ULUG‘BEK HAMDAMNING “MUVOZANAT” ROMANI BADIYYATI

Dilafro‘z QALANDAROVA,

*Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti dotsenti,
fil.f.f.d., [PhD]*

Durdonaxon BOZOROVA,

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti talabasi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15878306>

Annotatsiya: Mazkur maqolada Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat” romanidagi turfa xil qahramonlarning, turli kasb egalarining hayot so‘qmoqlarida qay darajada ishtiroklari, ularni hayotni davom etishga bo‘lgan intilishlari, ularga berilgan sinovlardan so‘ng ham muvozanatlarini saqlab qolishga urinishlari haqidagi tahlillar, mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: muvozanat, tarozi, boy, kambag‘al, ta‘lim, roman, din

Аннотация: В данной статье представлены анализы и мнения об участии различных персонажей романа Улугбека Хамдама «Равновесие», степени участия людей различных профессий в жизненных путях, их стремлении продолжать жизнь, их попытках сохранить свое равновесие даже после выпавших на их долю испытаний.

Ключевые слова: баланс, весы, богатые, бедные, образование, роман, религия

Abstract: This article presents analyses and comments on the participation of various characters and people of different professions in the life paths of Ulugbek Hamdam’s novel “Balance”, their aspirations to continue life, and their attempts to maintain their balance even after the trials they face.

Keywords: balance, scales, rich, poor, education, novel, religion

Zamonaviy o‘zbek adabiyotining taniqli vakillaridan biri Ulug‘bek Hamdam (Ulug‘bek Hamdamov Abdurahobovich)ning “Muvozanat” romani 1997-yilda nashr qilingan. Roman adibning nasriy asarlari qatoriga kiradi. [2.]. “Muvozanat” – muvozanatda yashashga undovchi asar [3.]. Bu asarni o‘qigan kitobxon mustaqillik davridan keyingi hayot tarzi, undagi qiyinchiliklar, ta‘limning ahvoli va o‘sha davr kishisining bilim olishga bo‘lgan intilishlaridan xabardor bo‘ladi.

“Asar shu kecha va kunduzdagi Siz va Biz haqimizda. Unda xalqning turli qatlamlariga mansub va har xil sohalarda ishlaydigan qator qahramonlarni o‘zida jam qilgan bitta umumiy bog‘ mavjud: u ham bo‘lsa, murakkab davrimizning qaynoq nafasi, o‘ziga xos evrilishlari. Asar bosh qahramoni Yusuf ana shu evrilishlarda ba‘zan boy berib qo‘yilgan muvozanat sari talpinib yashaydi” [1.1.].

Asarda yozuvchi istiqloq haqida quyidagicha fikrni aytib o‘tadi “Istiqloq, bu – haligacha ayrimlar istehzo bilan qaraydigan va shunday munosabatda bo‘lishga behuda urinadigan quruq shior, qizil yorliq emas! U xalqimizning so‘nggi yuz yil mobaynida erishgan eng ulkan va har qanday millat tarixida misli kam topiladigan ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-ruhiy darajasidir!” [1.1].

Asarni o‘qir ekanmiz inson boy bo‘lsayu mehr ko‘rmasa ham baxtli bo‘la olmasligi va yana bu fikrga nomutanosib ravishda agar insonda mablag‘ yetarli bo‘lmasa ham baxtli bo‘la olmasligi haqidagi sahnalar kitobxonni fikrlashga, hayotiy bir to‘xtamga kelishga, umr so‘qmoqlaridagi sinovlarning rang-barang va insonni doimo shoshiruvchi xususiyatlarga egaligiga yana bir bor ishontiradi. Asar davomida shunday qahramonlarga duch kelamizki, ularda ham diniy ham dunyoviy bilimlar mavjud, bunga teskari ravishda ba‘zi obrazlarda dunyoviy bilim kamligidan noto‘g‘ri diniy tasavvurlarning paydo bo‘lish holatlari uchrab turadi.

“Ruhni ham, jismni ham ozuqasiz qoldirib bo‘lmaydi. Insonda umumiy ikki katta ehtiyoj mavjud. Bular – ma‘naviy va moddiy ehtiyoj. Har ikkisining o‘rni, darajasi va ahamiyati hammamizning hayotimizda katta rol o‘ynaydi. Ba‘zan moddiyat ketidan quvib, tirikchilik dardida yurib o‘zimizda ma‘naviy bo‘shliq paydo qilib qo‘yamiz. Bu tomondan uzilib qolamiz. Aksi holatda esa ruhiy quvvatimiz bo‘lmish ma‘naviy ozuqaga sho‘ng‘ib ketib, moddiy tomondan oqsaymiz. Bu ehtiyojlar ipi uchlarini tutashtirish kishidan katta mehnat talab qiladi. Ikkisi o‘rtasidagi muvozanatni ushlab turish har doim ham qo‘limizdan kelavermaydi. Bu mashaqqat” [3.].

Asarning bosh qahramoni Yusufning o‘rtoqlari Said va Mirazim hayotda o‘z o‘rnilarini topib ketishdi, lekin Yusuf hanuzgacha hayot sinovlari bilan kurashib kelayotgan edi. Yusufning o‘rtog‘i Said katta lavozimda ishlaydi. Mirazim esa bobo kasbini davom ettirayotgan edi, ya‘ni katta savdogar edi u. Bizning Yusuf esa o‘zi o‘qigan tarix yo‘nalishidan ketgan, institutda shu fandan dars berardi. Mustaqillikning dastlabki yillarida ta‘lim tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan shaxslarning maoshlari juda kam, bu moyana bilan ro‘zg‘or tebratish ayniqsa oila boshliqlari uchun juda qiyin masala edi. “Bunday chog‘larda Said kabilar o‘z yo‘lini, Mirazim kabilar o‘z sohasini topib ketdilar. Yusufklar kabi oltin o‘rtaliqni, muvozanatni tutishga intilganlar ham talaygina edi” [3.].

“Asarda Yusufning akasi bo‘lmish Amir ham katta o‘ringa ega. U dunyodan yuz o‘girib, oxirat tashvishiga tushgan obraz sifatida gavdalanadi. Yusuf, Amir, otalari Odil aka suhbatlari orqali dinda ham muvozanat mavjudligini anglashimiz mumkin” [3.].

Bu obraz dinga berilib dunyodan uzilgan edi. U faqat kunini nomoz o‘qish bilan o‘tkazar edi. Bir tarafda esa oilasi moddiy jihatdan qiynaladi. Uni bu qiyinchiliklarini ko‘rib esa onasi ming karra azoblanadi, axir nima bo‘lganda ham uning farzandi. Amirning ayoli puli yo‘qligidan echkisini sotishga majbur bo‘ladi. Amir esa bu pulni olib ko‘chadagi nochorga beradi, uni kiyintirib ovqatlantirib ham qo‘yadi. Nega desa bu savob uchun deb javob beradi. Xo‘sh oilasini och qoldirgan odamning o‘qigan nomozlari tutgan ro‘zalari va qilgan ehsonlari qabul bo‘larmikan? Axir onasi va oilasi bir tarafda qiynalayotgan bo‘lsa? Muqaddas kitoblarimizda shunday deyilgan: “Abu Hurayra roziyallohu anhu shunday der edi: “Bir odam Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning

huzurlariga kelib: “Yo Rasululloh, mening yaxshi muomala qilmog‘imga kim haqliroqdir?” deb so‘radi. Rasululloh: “Onang!” dedilar. U: “Yana kim?” deb so‘radi. Rasululloh: “Yana onang!” dedilar. U: “Yana kim?” dedi. Rasululloh: “Yana onang!” dedilar. U: “Yana kim?” deb so‘radi. Rasululloh: “So‘ng otang!” dedilar” [4.]. Bundan kelib chiqadiki, yaxshilikni avvalo oiladan boshlash kerak.

Mirazimning ayoli Zahro obrazi orqali ayollarning ruhiy holati, ularning ehtiyoji, ruhiy muvozanati ko‘rsatib berilgan. Mirazim boy. Zahroning hech narsadan kamchiligi yo‘q, istagani muhayyo. Qo‘lini sovuq suvga urmaydi. Ammo u zerikishdan zerikkan. Oltin qafasdagi qushga o‘xshaydi go‘yo. Unga “havo” kerak. Ko‘plab erkaklar bor: “hamma narsa yetarli, nima qilasan ishlab, ayolni joyi uyda”, deya ayolini ishlatmaydi. Ammo ayolga yetmayotgan boshqa narsalar borligini bilmaydi” [3.]. Zahro Mirazimning kursdoshi va ayoli. Ular bir institutni tamomlashgan va oila qurushgan. Zahroning hayotdagi muvozanatini yo‘qotishiga uning turmush o‘rtog‘ining e‘tiborsizligi sabab bo‘lgan. Chunki uning pulda muammosi yo‘q. Lekin turmush o‘rtog‘i unga nisbatan bee‘tibor. U bu qiyinchilikni yenga olmadi hatto o‘z xizmatkori bilan eriga xiyonat qilishiga bir bahiya qoldi. “Ayolga erkinlik kerak, jamiyat kerak, fikrlarini eshitadigan insonlar kerak, odamlar orasidagi o‘z o‘rni kerak. Uydagi yaltiroq jonsiz narsa-buyumlar emas, jonli dildosh darkor unga. Zahro diplomini chang bostirib tashlab qo‘yish uchun o‘qimagandi. Ammo shunday bo‘ldi. Oqibatda, uning ruhiyati tobora halokatga qarab ketdi” [3.]. U Yusuf bilan uchrashib o‘z muvozanatni yo‘qotib qo‘ydi va eriga xiyonat qildi. Lekin hayotdagi muvozanatini saqlab qola olgan qahramonimiz Yusuf bu yo‘ldan vaqtida qaytdi.

“Yusuf ancha vaqt o‘z muvozanatni izladi. Unga eng alam qilgani esa o‘g‘lining o‘limi bo‘ldi. Qancha azob tortmasin, qancha sarson bo‘lmasin o‘zligidan voz kechmadi, g‘ururini toptamadi, haromga qo‘l urmadi. Har doim moddiy, ma‘naviy, diniy muvozanatni tutishga harakat qildi. Bunga erishdi ham [3.]. Asarda faqatgina Yusuf o‘z muvozanatni saqlab qoldi deya olmaymiz. Chunki Yusufning otasi Odil aka ham hayot tarozisining pallalarini teng olib keta oldi. U qiyinchiliklarda o‘zini yo‘qotib qo‘ymadi. Farzandlariga har qanday vaziyatda ham dalda berib tura oldi.

“Hayotimiz muvozanatdan iborat. Oilaviy munosabatlarda, ko‘chadagi muomalada, ishdagi muloqotlarda, boringki, har bir qadamimizda oltin o‘rtaliqni tutishga urinamiz. Inson moddiyatga ruju qo‘yib ma‘naviy, ruhiy ozuqasini qismasligi yoki aksincha, ma‘naviy hayotga sho‘ng‘ib moddiy ta‘minotni izdan chiqarmasligi lozim. Har bir narsada me‘yor yaxshi...” [3.].

Xulosa shuki, asarni o‘qigan har bir kitobxon insoniyat uchun hayotdagi muvozanatni tuta olish qay darajada muhim ekanini tushunib yetadi. Hayotni asrab qolish ham, yoki uni barbod qilish ham insonning o‘z qo‘lidaligiga yana bir bor amin bo‘ladi.

“TURKIY XALQLAR ADABIYOTIGA DOIR ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: MUAMMOLAR, OMILLAR, YECHIMLAR” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ulug‘bek Hamdam. “Muvozanat” roman. – T., “Sharq” nashriyoti matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2007.
2. Omanova, M. A. (2023). Perfect human interpretation in alisher navoy's creation. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(1), 346-347.
3. Kalandarova, Dilafuz Abdujamilovna. "Research classification of Karl Reichl." *Current research journal of philological sciences* 2.11 (2021): 29-33.
4. Kadirova M.N. Improvement Of Students' Competences on Folklore Genres in Distance Learning Environment. Nizami Tashkent State Pedagogical University lecturer of the Department of Uzbek language and literature. <https://geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/410>
5. Burxanova, Feruza. "Nazar Eshonqulning ilm-ma'rifat, kitobxonlikka doir qarashlari." *Konferensiyalar/ Conferences*. Vol. 1. No. 12. 2024.
6. Rajabova, Hulkar. "Interpretation of time and space in shorts (Chronotope)(On the example of the stories of the writer Shukhrat Matkarim “Yilon”, “Maqar”, Kholiyor Safarov “Honor and Life”, “Wingless Birds”, “The Saddest Joy”)." *Modern Science and Research* 4.3 (2025): 1332-1340.
7. Маҳбуба Қадамбоевна Ўразбаева. АЁЛ ХАРАКТЕРИНИ ОЧИШДА БАДИИЙ НУТҚНИНГ ЎРНИ. GOLDEN BRAIN. RAIN ISSN: 2181-41 20. 23.01.10. 193-199- 6. <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1179>
8. O‘RAZBAYEVA Mahbuba. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. “Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an‘anasi” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiali. 2024-yil 25-yanvar, 28-32-betlar. https://oriens.uz/media/conferencearticles/5_ORAZBAYEVA_Mahbuba_28-32.pdf.